

Ishchi varaqalar

1-ishchi varaqa – Bo'sh ish o'rinlar e'loni

1-topshiriq

Diqqat bilan o'qing va muhim ma'lumotlarni belgilang. Quyidagi savollar bo'yicha asosiy fikrlarni yozing:

- Firma haqida nimani bilasiz?
- Firmada qaysi kasb/kasblar bo'yicha ishlash mumkin?
- Firma o'z xodimlarini qo'llab-quvvatlash uchun qanday takliflari mavjud?
- Ariza beruvchi qanday talablarga javob berishi kerak? (maktabni bitirganligi, baholari, kuchli tomonlari)
- Ariza topshirish muddati bormi?
- Ariza topshirish qanday shaklda talab etiladi? (masalan, onlayn?)
- Qo'shimcha ma'lumot olish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
- Ish haqi to'g'risida ma'lumot bormi?
- Qanday savollar javobsiz qolmoqda?

2-topshiriq

Tegishli firma veb-sahifasini o'rganing va natijalaringizni qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiring.

3-topshiriq


To'plangan ma'lumotlarni ustuvorlik darajasi bo'yicha tartibga soling. (Ariza beruvchi uchun qaysi ma'lumotlar juda muhim? Qaysi ma'lumotlar kamroq ahamiyatga ega?)

4-topshiriq

Maktabni tugatganingizdan so'ng Sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan bo'sh ish o'rin e'lonlarini beruvchi onlayn platformalarni internetdan qidiring.

2- ishchi varaqa – Jadval shaklidagi CV - Xatolarini toping!


Jadval shaklidagi CV bo'yicha o'z bilimingizni sinab ko'ring va Madinaning CVsiga biz kiritgan barcha 10ta xatoni toping:

Ismi, Familiyasi	Madina Alimova	
Manzili	Namuna ko'chasi10, 10010 Toshkent	
Telefon	+99891 765xxxx	
E-Mail	uzbek_barbisi@mail.ru	
Tug'ilgan kun sanasi	kun oy/yil	
Ota-onasi	Onasi Inobat (Uy bekasi, nonvoyxonada vaqti-vaqti bilan yordamchi) Otasi Murod (chilangar)	
<u>Tla'im muassasasi</u>		
Oy YYYY	Kasb-hunar maktabini bitirishi	
YYYY-YYYY	Mirzo-Ulugbek nomidagi maktab	
YYYY-YYYY	„SMART“ boshlang'ich maktabi	
<u>Amaliyot</u>		
OO/YYYY-OO/YYYY	„UCELL“ kompaniyasi yordamchi	
OO/YYYY	„Cake Lab“ kafesida amaliyot	
O/YYYY - O/YYYY	„Alpha“ til o'qitish markazida amaliyot	
<u>Computer savodxonligi</u>		
MS-Office	yaxshi	
Internet	a'lo	
<u>Boshqalar</u>		
Haydovchilik guvohnomasi		
<u>Xobbi/Qiziqishlar</u>		
Televizor ko'rish, kompyuter o'yinlari (masalan, Combat), shopping, velosiped minish, do'stlar bilan uchrashish, kinoga borish		
Toshkent, kun oy/yil		



Nechta xato topdingiz? Belgilang!












1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

3- ishchi varaqa – Jadval shaklidagi CV - Javoblar

Sarlavhaga "CV" deb yo'zilmagan	Ismi, Familiyasi Manzili Telefon E-Mail Tug'ilgan kun sanasi Ota-onasi	Madina Alimova Namuna ko'chasi 10, 10010 Toshkent +99891 765xxxx uzbek_barbisi@mail.ru kun/oy/yil Onasi Inobat (Uy bekasi, nonvoyxonada vaqti-vaqti bilan yordamchi) Otasi Murod (chilangar)		Rasm juda yorqin va sifatsiz
uzbek_barbisi@mail.ru kabi E-mail manizllar "CV"larda qo'llashga mos kelmaydi	<u>Tla'im muassasasi</u> Oy YYYY YYYY-YYYY YYYY-YYYY	Kasb-hunar maktabini bitirishi Mirzo-Ulugbek nomidagi maktab „SMART“ boshlang'ich maktabi		Ota-onaga oid ma'lumotlar CVga yozilmaydi. CV ota-ona haqida emas, Siz haqqingizdadir
Diqqat! Imloviy xato! "Tla'im muassasasi" emas "Ta'lim muassasasi" deb yozilishi kerak	<u>Amaliyot</u> OO/YYYY-OO/YYYY OO/YYYY O/YYYY - O/YYYY	"UCELL" kompanyasi yordamchi "Cake Lab" kafesida amaliyot "Alpha" til o'qitish markazida amaliyot		
Sana formatlari bir xil emas	<u>Computer savodxonligi</u> MS-Office Internet	yaxshi a'lo		Qilingan ishlar yoritilmagan
Diqqat! Imloviy xato! "Computer" emas "Kompyuter" deb yozilishi kerak	<u>Boshqalar</u> Haydovchilik guvohnomasi			
	<u>Xobbi/Qiziqishlar</u> Televizor ko'rish, kompyuter o'yinlari (masalan, Combat), shopping, velosiped minish, do'stlar bilan uchrashish, kinoga borish			Xobbilar ko'p. Maksimal 3-4 eng muhimlari yozilishi kerak. Ya'ni shopping, do'stlar, kino yozilmaslik lozim!
Imzo qo'yilmagan	Toshkent, kun/oy/yil			

4- ishchi varaqa – CV bo'yicha nazorat ro'yxati

Hammasini o'ylab ko'rdingizmi? Xatolar yo'qmi? Yana bir marta tekshirib ko'ring. Bajarilgan ishlarni namunadagidek belgilang.  ushbu belgi qo'yilgan ma'lumotlar CVga zinhor kiritilmasligi lozim.  to'g'rilariga bu belgini qo'ying

	Nazorat ro'yxati mavjud.
	Sarlavha sifatida hujjatga CV yozilgan.
	Tugatilayotgan o'quv muassasasi hamda bitirgan umumta'lim maktabi ko'rsatilgan.
	O'z amaliy tajribalarimni yoritdim.
	Barcha sanalar yagona formatda (oy/yil) yozilgan, masalan: 10/2022.
	Ta'lim va amaliy tajriba bir-biriga mos kelishi, yoki xronologik oshib boruvchi/kamayuvchi tartibda keltirilishi lozim.
	Bo'sh vaqtimda shug'ullanadigan 3-4 qiziqish (hobbi) larimni yozdim.
	Imlo, grammatika, punktuatsiya va iboralar to'g'riliigi tekshirilgan.
	Joriy sana va imzo qo'yilgan.
	Ota-ona, aka-uka va opa-singilar, ularning kasblari: Bu ma'lumotlar kiritilishi tavsiya etilmaydi, biroq ayrim firmalar bu ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.
	Diniyi, partiyaviyligi (diniy yoki siyosiy ish beruvchilar bundan mustasno)
	E-mail manzilini kulgili nomlash noto'g'ri, masalan, „super_killer@aol.com“ yoki „uzbek_barbisi@mail.ru“
	Xavfli yoki ekstremal a'zoliklar yoki qiziqish (hobbi) lar

5- ishchi varaqa –Muqova xat

Muqova xatimda hammasi to'g'rimi?

- Mavzu satri mos keladimi?
- Murojaat mos ravishda yozilganmi?
- Xatning kirish qismi yaxshi yoritilganmi?
- Turtki beruvchi (motivatsiyon) sabablar haqida ma'lumotlar keltirilganmi?
- Xat sizning shaxsingiz (kuchli tomonlar, ko'nikmalar) to'g'risida ma'lumot beradimi?
- Ta'rif qisqa, ixcham va shu bilan birga mazmunlimi?
- Amaliyotdan olingan tajribalar yoki boshqa malakalar yoritilganmi?
- Nomzod qaysi vaqtdan boshlab ishga chiqishi mumkinligi aniq ko'rsatilganmi?
- Salomlashuv tarzi to'g'rimi?
- Iboralar mos tarzda yozilganmi?
- Grammatikasi to'g'rimi?

6- ishchi varaqa –Muqova xat – Xatolarni toping!

Ushbu salbiy misolda biz 10 ta odatiy xatoni yashirib qo'ydik. Ularni ko'rib turibsizmi?
Matndagi xatolarni rang bilan belgilang!

Madina Alimova
 Namuna ko'chasi 10, 10010 Toshkent
 +99891 765xxxx
 E-mail: madina_alimova@mail.ru

"To'xtaniyoz-ota" xususiy korxona rahbari
 Dilshod Ergashevga
 Azimov ko'chasi, 52
 10100 Toshkent shahri

KK.OO.YYYY

Mavzu: Ishga ariza

Salom To'xtaniyoz ota,

Ushbu bilan men o'zinga e'tiboringizni qaratmoqchi edim. Men Siz tasavvur qilishingiz mumkin bo'lgan eng yaxshi nomzodman, chunki men jamoada ishlashga qodir, talabchan, aqli, ko'ngli ochiq, moslashuvchan, aktiv, kommunikativ insonman va 2024-yil 1-avgustdan ishga chiqishga tayyorman.

Men hali kasb-hunar maktabida o'qiyman, lekin iyul oyida kasb-hunar maktabini tugatganimdan keyin, Sizda texnolog bo'lib ishlashni xohlayman. Men oyiga 3 million so'm ishlab topmoqchiman, agar menga korxonadan yordamchi vazifasi yoki shunga o'xshashini taklif qilsangiz, kamroq maoshga ham roziman.

Ilovada men haqimda qo'shimcha ma'lumotlar, mening kasb-hunar maktabdagi o'qishimga oid hujjatlar hamda barcha sertifikatlarni topishingiz mumkin.

O'zaro gaplashib olsak, juda xursand bo'lar edim.

Salomlar bilan,

Madina A.

Madina Alieva

Ilovalar

Nechta xato topdingiz? Belgilang!

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

7- ishchi varaqa –Muqova xat – Javoblar

Madina Alimova
Namuna ko'chasi 10, 10010 Toshkent
+99891 765xxxx
E-mail: madina_alimova@mail.ru

"To'xtaniyoz-ota" xususiy korxona rahbari
Dilshod Ergashevga
Azimov ko'chasi, 52
10100 Toshkent shahri

KK.OO.YYYY

Mavzu: ariza

Salom To'xtaniyoz ota,

Ushbu bilan men o'zinga e'tiboringizni qaratmoqchi edim. Men Siz tasavvur qilishingiz mumkin bo'lgan eng yaxshi nomzodman, chunki men jamoada ishlashga qodir, talabchan, aqlli, ko'ngli ochiq, moslashuvchan, aktiv, kommunikativ insonman va 2024-yil 1-avgustdan ishga chiqishga tayyorman.

Men hali kasb-hunar maktabida o'qiyman, lekin iyul oyida kasb-hunar maktabini tugatganimdan keyin, Sizda texnolog bo'lib ishlashni xohlayman. Men oyiga 3 million so'm ishlab topmoqchiman, biroq kamroq maoshga ham roziman, agar menga korxonadan yordamchi vazifasi yoki shunga o'xshashini taklif etsangiz.

Ilovada men haqimda qo'shimcha ma'lumotlar, mening maktabdagi o'qishimga oid hujjatlar hamda barcha sertifikatlarni topishingiz mumkin.

O'zaro gaplashib olsak, juda xursand bo'lar edim.

Salomlar bilan,

Madina A.

Madina Alimova

Ilovalar

Xat o'zi kimga yozilmoqda?
Korxona rahbari D.Ergashevga yoki To'xtaniyoz otagami?
Salom ... bu norasmiy murojaat.
Hurmatli ...deb yozish jiddiy ko'rinadi va rasmiy hisoblanadi

Bu yerda ariza berilayotgan lavozim ko'rsatilishi kerak

Bo'sh ish o'rni e'lonida aniq so'ralgan bo'lsa real ish haqi bo'yicha xohishni ko'rsatish joiz. Biroq kasbiy ta'limga bu ehtimoldan yiroqdir

Xodimlar bo'yicha mas'ul shaxs bilan qanchalik yaxshi do'stsiz? „Hurmat bilan“ dep yakunlash ma'kulroq

Imzolaganda familiya to'liq yozilgani yaxshi

"Mavzu" so'zi yozilmaydi. "Ariza" so'zining o'zi kamlik qiladi. Ariza nima uchun yozilmoqda?



O'ziga ishonch bo'lgani yaxshi, lekin oshirib yubormaslik kerak













Sanab o'tish ortiqcha. Bu shunchaki bo'sh ibora bo'lib, hech narsani anglatmaydi. Yaxshisi ish o'rniga mos keladigan kuchli tomonlaringizni asoslab bering.

Buni alohida ta'kidlash shart emas. Ilovalar ro'yxatini kiritmoqchi bo'lsangiz, ularni sahifaning pastki chap tomoniga yozing.

Sizni ishga qabul qilish suhbat (intervyu)ga taklif qilishsa xursand bo'lishingiz mumkin, o'zaro gaplashib olsak deb yozish noto'g'ri.

8-ishchi varaqa – Xat bo'yicha nazorat ro'yxati

Hammasini o'ylab ko'rdingizmi? Xatolar yo'qmi? Yana bir marta tekshirib ko'ring. Bajarilgan ishlarni namunadagidek belgilang  ushu belgi qo'yilgan ma'lumotlar muqova xatda zinhor yozilmasligi lozim.  to'g'rilariga bu belgini qo'ying.

	Nazorat ro'yxati mavjud.
	Qabul qiluvchining manzili va firmaning ariza qabul qiluvchi xodimining ism-familiyasi to'g'ri ko'rsatilgan.
	Joriy sana va imzo qo'yilgan.
	Imlo, grammatika, punktuatsiya va iboralar to'g'riligi tekshirildi.
	„Siz“, „Sizni“ va „Sizga“ murojaatda katta harf bilan yoziladi.
	Nima uchun ushbu kasbni tanlaganimni tushuntirdim.
	Firma faoliyatini o'rganib chiqdim.
	Nima uchun firma va lavozimga mos kelishimni asoslab berdim.
	„Hurmat bilan“ dep xayrlashdim
	Bo'sh va ma'nosiz iboralarni qo'llash, asossiz sifatlarni sanab o'tish noto'g'ri, masalan: „Men intiluvchan, izlanuvchan, mehnatsevar, o'rganishga tayyor, jamoaviy va moslashuvchanman“.
	Yangi arizadagi manzilga adaship eski arizadagi firmaning ariza qabul qiluvchi xodimi ism-familiyasini kiritish.
	Yaqin tanishlardek murojaat: Salom/ Qadrdon Janob... yoki Salomlar bo'lsin.

9-ishchi varaqa – Onlayn-ariza

1

Onlayn- ariza blankasini odatda firmaning veb-saytida topishingiz mumkin

2

Avvaliga o'zingizga foydalanuvchi akkauntini ochib, parol olasiz. Ro'yxatdan o'tishni tugatish uchun tegishli tugmani bosib, akkauntni tasdiqlaysiz va faollashtirasiz.

3

To'ldirilishi zarur bo'lgan kataklarga kerakli ma'lumotlar kiritiladi. To'ldirilishi majburiy va ixtiyoriy bo'lgan kataklar mavjud. Shu bilan birga, o'zingizga tegishli shaxsiy ma'lumotlar, maktabdagi natijalar, bilim va ko'nikmalaringiz so'raladi.

Iltimos, eng yuqori ta'lim darajangizni ko'rsating

Ma'lumoti

O'rta ma'lumot

Maktab ta'limi bo'yicha ma'lumotlarni kiriting

Maktab turi

O'rta maktab

Bitiruv sanasi (taxminan)

30.07.2024

Bitiruv

O'rta ma'lumot

Maktab muvaffaqiyatli bitirildimi?

Maktab nomi

O'rtacha baho

Davlat

Viloyat

Agar Siz kasb-hunar yoki bakalavr ta'limiga hujjat topshirayotgan bo'lsangiz, iltimos, barcha tegishli maktab fanlari bo'yicha olgan oxirgi bahoni shu yerga kiriting.

Maktab fani

Matematika

Baho

4

Maktab fani

Nemis tili

Baho

3

4

Ko'p firmalar skanerlangan yoki PDF-shaklidagi ma'lumotnomalar, sertifikatlar va CV kabi hujjatlarni ilova qilib yuklashingizni talab qiladi. Shu joyda, fayllarning ruxsat etilgan hajmiga va ilovalar alohida yoki yaxlit PDF hujjati sifatida yuklanishi zarurligiga e'tibor bering.

5

Ma'lumotlarni yuborishdan oldin, yana bir necha marta tekshirib chiqing: barcha zarur kataklarni to'ldirdingizmi? Imlo va boshqa xatolar bartaraf etildimi? Barcha ilovalarni to'g'ri yukladingizmi? „Yuborish“ tugmasini bosganingizdan so'ng, kiritgan ma'lumotlaringiz odatda sizga boshqa ko'rinmay qoladi.

6

Ayrim firmalar onlayn arizaning bir qismi sifatida layoqat testini o'tkazadi, bunda siz yechilishi kerak bo'lgan turli vazifalar ustida ishlaysiz. Bunday onlayn-test talab qilinishi va unga qanday tayyorgarlik ko'rishingiz mumkinligi haqida firmaning veb-saytida bilib olishingiz mumkin bo'ladi.

9

10-ishchi varaqa – E-mail orqali ariza berish – Xatolarni toping!


O'zingizni sinab ko'ring va E-mail orqali ishga ariza haqida qanchalik yaxshi bilishingizni tekshiring. Biz 8ta keng tarqalgan xatoni kiritdik. Barchasini topa olasizmi? Xatolarni rang bilan belgilang va Madina o'z arizasini qanday yaxshilashi mumkinligini muhokama qiling!

Yangi E-Mail	
Kimdan:	uzbek_barbisi@mail.ru
Kimga:	Info@ucell.uz
Mavzu:	Ariza Kasb-hunar
Ilovalar:	passfoto03.jpeg; ariza.doc; CV.doc; shahodatnoma.doc
<p>Salom, Internetda qiziqarli ish o'rni to'g'risida o'qib qoldim. Mana mening arizam. 😊</p> <p>Salomlar bilan, Madina</p>	







Nechta xato topdingiz? Belgilang!

1	2	3	4	5	6	7	8


11-ishchi varaqa – E-mail orqali ariza berish – To'g'ri javoblar




12-ishchi varaqa – E-mail orqali ariza berish – Ijobiy na'muna

Jo'natuvchi:	madina_alimova@mail.ru
Oluvchi:	Ucell_kadr@ucell.uz
Mavzu:	Mijozlar bilan ishlash operatori lavozimiga ariza
Matn:	<p>Hurmatli Kamolov Dilshod Akromovich,</p> <p>Sizga Uzjobs.uz saytida e'lon qilingan, 01.09.2024 sanasidan "Mijozlar bilan ishlash operatori" lavozimida ishlash uchun o'z ariza hujjatlarimni taqdim etmoqdaman. Ilovada muqova xatim, CV, kasb-hunar maktabi diplomi hamda amaliyotni o'taganligim haqidagi ma'lumotlarimni yuboryapman.</p> <p>Sizning javobingizni mamnuniyat bilan kutaman.</p> <p>Hurmat bilan</p> <p>Madina Alimova.</p> <p>Manzil: Turon ko'chasi, 8 10100 Toshkent E-mail: madina_alimova@mail.ru Telefon: +99894 567xxxx</p>
Ilova:	<div>Madina_Alimova_ariza_hujjatlari.pdf (74 KB) X</div> <div><div>Jo'natish</div><div></div><div>    </div></div>

13-ishchi varaqa – E-mail orqali ariza berish bo'yicha nazorat ro'yxati

Hammasini o'ylab ko'rdingizmi? Xatolar yo'qmi? Yana bir marta tekshirib ko'ring. Bajarilgan ishlarni namunadagidek belgilang.  ushbu belgi qo'yilgan ma'lumotlar E-mail orqali berilgan arizaga zinhor kiritilmasligi lozim.

 to'g'rilariga bu belgini qo'ying

	Nazorat ro'yxati mavjud.
<input type="radio"/>	Quyidagi hujjatlar mavjud (muqova sahifasi (talab etilsa), fotosurat (talab etilsa), muqova xat, CV, guvohnomalar).
<input type="radio"/>	Barcha hujjatlar xatosiz yozilgan. Yaqinlarim, o'qituvchim yoki do'stim tomonidan tekshirilib tuzatilgan (imlo, grammatika va tinish belgilari tekshirilgan, firma ariza qabul qiluvchi xodimining ism sharifi to'g'ri yozilgan, CV imzolangan, to'g'ri va muhim ma'lumotlar berilgan, v.h.).
<input type="radio"/>	Guvohnomalarim sifatli skanerlangan.
<input type="radio"/>	Men alohida hujjatlarni to'g'ri tartibda ketma ketlikda PDF-faylga birlashtirdim (avval muqova sahifasi, keyin CV va guvohnomalar).
<input type="radio"/>	Hujjat formati (PDF) va hajmi (MB) tekshirib chiqdim.
<input type="radio"/>	PDF fayli aniq nomlangan (masalan, Madina_Alimova_ariza_hujjatlari.pdf).
<input type="radio"/>	Men PDF faylni E-mailga ilova qilib yukladim, ilova hajmi ilova hajmi ta'lab qilingandan katta emas (maksimal 1 MB)
<input type="radio"/>	E-mailda firma ariza qabul qiluvchi xodimining ism sharifi to'g'ri yozilgan (Hurmatli Kamolov Dilshod Akromovich).
<input type="radio"/>	Mavzu matni aniq yozilgan.
<input type="radio"/>	Sinab ko'rish uchun avvaliga o'z E-mail manzilingizga xabarini yubordim va xatning tarkibi hamda ilovalarini qayta tekshirdim.
<input type="radio"/>	Arizani belgilangan E-mail manziliga yuborish (agar mas'ulning yoki boshqa E-mail ko'rsatilgan bo'lsa, firmaning shunchaki umumiy Info@ucell.uz manziliga yubormang).
	Qog'oz shaklida taqdim etiladigan ariza hujjatlariga qaraganda E-mail orqali yuboriladigan arizaga puxtalik bilan tayyorgarlik ko'rmaslik (bunday yondashish xato hisoblanadi, xar ikkalasiga ham puxtalik bilan yondashish lozim).
	Arizani nomlanishi jiddiy emas, kulguli E-maildan ariza jo'natish, masalan, <i>super_killer@aol.com</i> yoki <i>uzbek_barbisi@mail.ru</i>

14-ishchi varaqa – Ishga qabul qilish suhbat (intervyu) uchun maslahatlar

1

Birinchi taassurotning ahamiyati

Sizning tashqi ko'rinishingiz ishga qabul qilish suhbat (intervyu)da ayniqsa muhimdir. Agar ko'rinishingiz yaxshi bo'lsa, odamlarda sizga nisbatan ko'proq iliqlik paydo bo'ladi. Shuning uchun, xatti-harakatlaringizga va kiyimingizga e'tibor bering. Birinchi taassurot ijobiy bo'lishi uchun quyidagi qoidalar va maslahatlarga rioya qilishingiz kerak:



Qoidalar:

- Ish joyiga mos keladigan toza va dazmollangan kiyimda kelish
- Taralgan soch va olingan tirnoqlar, og'izdan noxush hid chiqmasligi
- Kech qolmaslik, favqulodda vaziyatda qo'ng'iroq qilib ogohlantirib qo'yish
- Intervyu vaqtida diqqatni saqlash va ko'z aloqasini yo'qotmaslik kerak
- Chalg'ituvchi yoki kutilmagan savollar berilsa ham, xushmuomala bo'lish



Maslahatlar:

- O'z kuchli tomonlaringizni biling va ishonch bilan gapiring
- Odam o'ziga ishonmasligini ko'rsatuvchi imo-ishoralardan saqlaning; qo'llaringizni bo'shashtirib tizzangizga yoki stolga qo'ying; o'tirganda ham bo'sh va tik holatda bo'ling
- Firmaning boshqa xodimlari bilan salomlashib yaxshi taassurot qoldiring.

2

Qiziqishingizni ko'rsating – “to'g'ri” savollarni bering

Intervyuda sizga beriladigan barcha savollarga to'g'ri keladigan javoblarni berishingizni o'zi yetarli emas. Qarama-qarshi tomon ish joyiga qnchalik qiziqayotganingizni ko'rishni xohlaydi. O'z navbatida, siz ham firma haqida yaxshi taassurot olish imkoniyatidan foydalanishingiz kerak. O'zingizni qiziqtirgan savollarni berib ikkalasiga ham erishishingiz mumkin. Ammo hushyor bo'ling: intervyyuda berilmasiligi kerak bo'lgan ayrim savollar ham mavjud.



Qiziqishingizni ko'rsatuvchi savollar:

- Firmaning kelajak uchun qanday reja va maqsadlari mavjud?
- Men kimlar bilan ishlayman?
- Mening ish joyimning ko'rinishi qanday? Uni hozir ko'rishim mumkinmi?
- Bu ish joyi doimimi yoki vaqtinchami?
- Mening arizam qancha vaqt ichida ko'rib chiqiladi va qachon javobi e'lon qilinadi?



Bermasligingiz kerak bo'lgan savollar:

- Sinov muddati davomida ta'til olsa bo'ladimi?
- Qo'shimcha (bayram) pullari beriladimi?
- Yaqin orada firmada janjal bo'lmadimi?
- Tugadimi? Endi ketsam bo'ladimi?
- Batafsil javob berilgan savollarni yana qayta berish

15-ishchi varaqa – Rolli o‘yin - Ishga qabul qilish suhbat (intervyu)

O‘q‘ituvchilar uchun ko‘rsatmalar:

Har bir guruh uchun zarur bo‘lgan tarqatma material — bo‘sh ish o‘rni uchun e‘lon va namunaviy CV (avvalgi mashg‘ulotlarda tayyorlangan/ishlab chiqilgan ish varaqalaridan foydalanishingiz mumkin).

Sinf to‘rt guruhga bo‘linadi. Ikki guruh kadrlar bo‘limi xodimlari rolini o‘ynaydi va nomzod bilan bo‘ladigan intervyuda qanday savollar berishlarini o‘ylaydilar va tayyorlaydilar. Qolgan ikki guruh ariza beruvchining rolini o‘ynaydi.



Namunaviy CV va bo‘sh ish o‘rni e‘lonidan foydalanib, har bir guruh intervyu uchun savol-javoblarni to‘plab, o‘z roliga tayyorgarlik ko‘radi.






Har bir guruh bitta odamni tanlaydi, tanlanganlar esa “kadrlar bo‘limi xodimi” va “nomzod” sifatida sinf oldida intervyuni simulyatsiyasini o‘tkazadilar.

Intervyular tugagandan so‘ng, qay darajada yaxshi o‘tganligi va nimalarga yanada e‘tibor qaratish mumkinligi bo‘yicha yalpi muhomakama bo‘lib o‘tadi.

Zarur bo‘lsa, rolli o‘yin boshqa juftliklar bilan takrorlanishi mumkin.

16-ishchi varaqa – Ishga qabul qilish suhbat (intervyu) bo'yicha nazorat ro'yxati

Hammasini o'ylab ko'rdingizmi? Xatolar yo'qmi? Yana bir marta tekshirib ko'ring. Bajarilgan ishlarni namunadagidek belgilang.  ushbu belgi qo'yilgan ma'lumotlar intervyuda zinhor bo'lmasligi lozim.  to'g'rilariga bu belgini qo'ying

	Nazorat ro'yxati mavjud.
<input type="radio"/>	Men firma haqida yetarli ma'lumotga egaman va firma haqidagi savollarga javob bera olaman, masalan, firma xodimlari soni, joylashuvi/filiallari, asosiy biznesi, firma tarixi, ijtimoiy faolligi, majburiyatlari va joriy ishlari.
<input type="radio"/>	Men o'z kuchli va zaif tomonlarimni bilaman va ularni misollar bilan tushuntira olaman.
<input type="radio"/>	Kiyimlarim toza, dazmollangan va puxtalik bilan tanlangan.
<input type="radio"/>	Soch va tirnoqlarim toza, o'g'zimdan yomon hid chiqmaydi.
<input type="radio"/>	Yo'l uchun yetarlicha vaqtni rejalashtirdim va kechikadigan bo'lsam, ogohlantirish uchun masul xodimning telefon raqamini yozib oldim.
<input type="radio"/>	Yonimda hujjatlar papkasi (CV, muqova xat, guvohnomalar, sertifikatlar va diplom), intervyuga taklif xati, ruchka, qalam va daftar bor.
<input type="radio"/>	Intervyudan oldin mobil telefonimni o'chiraman.
	Yolg'on ma'lumotlar berish.
	Intervyuga yuvilmagan, norasmiy kiyimlarni kiyib borish.
	Intervyu boshlanishi bilan maosh, ta'til yoki ish vaqti haqida so'rash.
	Sensirash, hurmatsizlik ko'cha so'zlari bilan suhbatlashish.